

EFFECTIVENESS OF FORMING CREATIVITY IN THE PEDAGOGICAL ACTIVITY OF PRESCHOOL EDUCATION

Tursunova Aziza Ixtiyorovna

*Shahrisabz State Pedagogical Institute,
Faculty of Pedagogy, 3rd year student of
preschool education*

Annotation: *The article provides information about the technology of formation of creative activity of pedagogues of preschool educational organization and the general description of the concept of creativity.*

Keywords: *preschool education, educator, pedagogical staff, competence, creativity technology.*

Introduction

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozimligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Davlatimiz rahbarining qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturda keng ko'lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir.

Ta'lim jarayonida kreativlikni shakllantirish muammosining ilmiy-nazariy va texnologik asoslari hamda ularni amalga tatbiq etishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim jarayoniga o'z ustida tinimsiz ish olib boradigan, eng so'ngi ma'lumotlardan xabardor bo'lgan, raqobatbardosh va shaxsiy ediasiga ega bo'lgan pedagoglarni ko'paytirish.

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgan kundan boshlab ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchi va murabbiylar maqomini ko'tarish borasida ham anchagina ezgu g'oyalar va jadal islohotlar olib borilmoqda. Pedagogik soha vakillarining nufuzi va qadr-qiymati, shanini ulug'lash nafaqat jamiyatning ziyoli qatlamining nufuzini oshiradi, balki kelajak bunyodkorligiga mustahkam poydevor qo'yishni taminlab beradi.

Uzluksiz ta'lim tizimining daslabki bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik kreativlik haqida gapirganda har biri alohida jihatlar va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu mavzu yuzasida ko'plab olimlar qadimdan to hozirgi kunga qadar ilmiy ishlar va g'oyalarni ilgari surib kelmoqdalar. Binobarin Muso Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'inoniylar, shuningdek, "Ma'mun akademiyasi" deb nomlangan Xorazmdagi ilmiy markazda (IX-XII asrlar) faoliyat ko'rsatgan allomalar ijodida inson tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etuvchi omil sifatida baholanib, ilmiy o'rganilgan.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazini tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Kreativlikning pedagogik tahlili va amaliy asoslari: Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy asarlarida shaxs ega bo'lishi zarur bo'lgan sifatlar majmui, ularning mohiyati haqidagi qarashlar yoritilgan. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida pedagoglarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman, Ken Robinson, Fisher, Frey Begetto, Kaufman Ali Treffinger tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalaridan ko'rish mumkin.

Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan bo'lajak pedagoglar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar

faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans kreativlikning to'rt asosiy konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur daslabki kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Ushbu mexanizm orqali amalga oshiriladigan ishlar pedagogik kompetensiyani yuqori darajaga ko'tarishga yordam beradi. Shu o'rinda kompetensiya tushunchasi va uning tasnifiy tuzilishini alohida takidlash lozim.

Bo'lajak pedagogning kreativlik sifatlarga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kreativlik sifatlarga ega bo'lishi uning kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagoglarning kreativlik sifatlarga ega bo'lishlari, bu tarbiya va o'quv jarayonlarini tashkil etishda an'anaviy yondoshishdan farqli o'laroq yangi g'oyalar o'ylab topishi, tashabbuskorlik qilishi, ya'ni bir qolipda fikrlamasligi, yangicha usullardan foydalana olishlari kabi bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagogning o'z ishiga kreativ yondoshuvi nimalarda o'z aksini topadi? Buni qarangki, odatda kreativlik bolalar faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq bu xolat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishini kafolatlamas ekan. Ana shu xolatda tarbiyachi-pedagog bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishini kafolatlash uchun eng samarali yo'l kreativ yondoshuvni tanlashi kerak bo'lar ekan. Buning uchun u bolalar tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab quvvatlashi, ularning qiziqishlarini e'tiborga olishi, har bir bolada uchraydigan alohida qobiliyatni maqsadli yo'naltira olish yo'llarini

qidirib topishi kerak bo'ladi .

Kreativlik nima? degan savolga yuzlanamiz.

- Kreativlik – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo'ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

- Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

- Psixolog olimlar tomonidan kreativlikning qo'yidagi ikkita komponenti aniqlangan. Bular:

- ✓ Shaxsiy mazmun. Ya'ni har bir insonning shaxsiy hayotining umum mazmuni. Bu mazmun madaniyatshunoslik bilan bog'liq. Har bir inson biron bir soha yoki faoliyat bilan shug'ullanar ekan, u kreativlik, ya'ni yaratuvchanlik munosabatda bo'ladi va uni iloji boricha chiroyli, insonlarni o'ziga tortishga yo'naltiriladi. Bu esa o'z navbatida insoniyatning madaniyatga yo'naltirilganligidir.
- ✓ Signifikatsion ko'nikmalar.
- ✓ Kreativlikni tashxis qilish psixosemiotik tahlil bilan bog'liq Kreativlikning darajasini aniqlash qo'yidagilar bilan belgilanadi:
- ✓ shaxsiy ma'noning rivojlanish darajasi;
- ✓ verballi belgilar sistemasini yaratish;
- ✓ Ta'lim olish kengligi ikkinchi semiotik tizimni tashkil etadi. Uning kreativlikni rivojlantirishga ta'siri gomomorfizik madaniyat bilan bog'liq.
- ✓ Psixologiya fanida kreativlik bilan bog'liq bo'lgan qo'yidagi jihatlarni aniqlashga doir qator metodlar tavsiya etilgan. Lekin bu metodlar bevosita kreativlikni emas, balki kreativlikni belgilab beruvchi muayyan jihatlarni aniqlashga qaratilgandir. Bular:
- ✓ Psixosemiotik analiz metodlar: mualliflik matnlarni analiz qilishning psixosemiotik tashxislash metodi, E.Torrens metodi, D.A.Leont'ev metodi, G.Myurreyning «Tematik appertseptiv matn» metordi, ekspertlarning baholari metodi.
- ✓ Ijtimoiy intellektni (aqlni) aniqlashga doir metodlar: Dj. Gilford va M. Salliven metodi, T.Lirining insonlararo muloqotlarni aniqlash metodikasi, xarakterning aktsentuatsiyaini aniqlash metodlari.
 - ✓ Matnlarni psixosemiotik tahlil qilish metodlari; «ko'lam» va «leksik boylik», komp'yuter dasturlari: Microsoft Access ma'lumotlar bazasi vah.k.
- Kreativlik shaxsiy mazmun va unga doir belgilarning ob'ektivligi bilan belgilanadi.
- Kreativlikning rivojlanishi uning komponentlerining rivojlanishiga bog'liq. Bular:

shaxsiy mazmun va signifikatsion ko'nikmalar.

•Kreativlikni tashxis qilish - ijodiy faoliyatning maxsulotining ko'satkichlari bilan bog'liq.

Shu bilan bir qatorda psixolog olimlar tomonidan o'quvchilarning insho yozishdagi kreativligi psixosemiotik jihatdan tahlil etilgan. Buni biz psixolog olim I.M.Kishtomova tomonidan olib borilgan ilmiy-tatqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Uning « Проблема творчества школьников: психосемиотический подход» nomli 19.00.07 – pedagogik psixologiya ixtisosligidagi psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajini olish uchun tayyorlagan disseratitsiyasining mazmunidan ko'rishimiz mumkin. Ilmiy izlanishardagi tajriba-sinov ishlarining taxlili shuni ko'rsatganki, insho bolalarning kreativ faoliyatining mahsuli sifatida tashxis qilish belgilangan. Bunda:

- ✓ O'quvchining shaxsiy ma'nolarining ko'satkichlari sifatida: ma'no va mazmun, vaqt, leksik boylik, javobgarlik, ob'ektotsentrizm, sub'ektotsentrizm, tema.
- ✓ O'quvchining signifikatsion ko'nikmalarining ko'satkichlari sifatida: inshoning ko'lam, obrazlilik, kompozitsiya, bir butunlilik, ta'lim olish kengligi. Ta'lim olish kengligining bazasi sifatida madaniyat hisoblanadi. Uni esa shaxs modellashtiradi. Bazali madaniyatni ta'lim olish kengligining kreativlikligini rivojlanish samaradorligi belgilaydi.

Kreativlikni shakllantirishning samaradorligi:

-tez o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga moslashgan holda o'zini boshqara oladi;

-hayotiy muammolarni hal etishda mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini faol qo'llay oladi;

-voqea-hodisalarga tanqidiy munosabatda bo'lib, mavjud muammolarni tahlil etish, vaziyatdan chiqish yo'llarini izlab topa oladi;

-yangi g'oyalarni, kreativ fikrlarni boshqalarga tushuntira oladi;

- axborotlarni savodxonlik bilan o'zlashtira oladi.

Tarbiyachi-pedagog ijodiy faoliyatini tashkil etishda muammoli masalalarni yechish va tahlil qilishga, shuningdek ijod mahsulotlarini yaratishga aloxida e'tibor qaratish zarur. Tarbiyachi-pedagog muammoli vaziyatlarni hal qilar ekan, masalaning yechimini topishga ijodiy yondoshishi uning hissiy- irodaviy sifatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Ko'pgina pedagog-tarbiyachilar o'zlarida kreativlik qobiliyatlari mavjud emas deb o'ylaydilar. Buning ikki xil sababi bor: Birinchisi, ko'p tarbiyachi-pedagoglari

kreativlik tushunchasi qanday ma'noni anglatishini to'liq izoxlay olmaydilar. Ikkinchisi, kreativlik negizida qanday sifatlar aks etishidan bexabar.

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda bo'lg'usi tarbiyachi pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati muntazam o'qib o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllanib boradi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kreativlik qobiliyatlariga ega bo'lishlari uchun talabalik yillaridayoq malakali ustozlar tomonidan poydevor qo'yib borilayotganiga guvox bo'lyapmiz. Xulosa qilib aytganda tarbiyachi-pedagog o'z faoliyatiga kreativ yondashuv, ya'ni kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni bilishi, bolalarni mashg'ulotlarga qiziqтира olishi, yangiliklar yaratishi, yosh avlodni yetuk, ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda bilim va mahoratlarini amaliyotda qo'llay olish lozim.

References:

1. Inoyatov U.I. Ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish g'g' Kasb- hunar ta'limi.- 2004.- №1.-B. 3-4.
2. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy madaniyati shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.-T.:1993.-289 b.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T. Universitet, 1998.-184 b.
4. G'ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. "Ta'lim-tarbiya sifati va qirralari". T; «Fan va texnologiyalar». 2004.
5. Kushvaktov N.X. O'quvchilarni milliy-manaviyat qadriyatlarini o'rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz. diss. -T.: 2006. - 174 b.